

BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGIKASIDA BOLA SHAXSINI TASHXISLASH

Mamarasulova Gulrux

*University of Business and Science universitetining
5-bosqich “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida bola shaxsini tashxislashning nazariy asoslari va amaliy usullari tahlil qilingan. Bola shaxsiyatining rivojlanish xususiyatlari, ularni aniqlash yo‘llari va individual yondashuvni ta’minlashda o‘qituvchi faoliyatining ahamiyati ko‘rsatilgan. Tadqiqot davomida bolalar shaxsiyatini tashxislashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: bola shaxsi, tashxislash, boshlang‘ich ta’lim, individual yondashuv, pedagogik texnologiya.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы и практические методы диагностики личности ребенка в процессе начального образования. Показаны особенности развития детской личности, способы их выявления и важность деятельности учителя в обеспечении индивидуального подхода. В ходе исследования обоснована эффективность использования современных педагогических технологий в диагностике личности детей.

Ключевые слова: детская личность, диагностика, начальное образование, индивидуальный подход, педагогические технологии.

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations and practical methods of child personality diagnosis in primary education. The features of child personality development, ways of identifying them, and the importance of teacher activity in ensuring an individual approach are shown. During the research, the effectiveness of using modern pedagogical technologies in diagnosing children’s personalities was substantiated.

Keywords: child personality, diagnosis, primary education, individual approach, pedagogical technologies.

Zamonaviy ta’lim tizimida har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish muhim vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiyat xususiyatlarini to‘g‘ri tashxislash orqali ular uchun eng samarali ta’lim sharoitlarini yaratish mumkin bo‘ladi. Bola shaxsiyatining rivojlanishi murakkab jarayon bo‘lib, uni to‘g‘ri tushunish va tashxislash pedagoglar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola shaxsiyatini tashxislash masalasi ko‘plab pedagog olimlar tomonidan o‘rganilgan. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, bolaning shaxsiy xususiyatlari erta yoshdan shaklana boshlaydi va maktab yoshi davomida yanada rivojlanadi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning kognitiv qobiliyatlari jadal rivojlanib, ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi, mustaqillik va mas’uliyat hissi paydo bo‘ladi, individual qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy pedagogika fani bundan 2000 yil oldin ham mavjud bo‘lgan bo‘lib, ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanish tarixida, bu fan pedagogikaning tarkibida bo‘lgan. Ijtimoiy pedagogika fani rivojining uch bosqichda rivojlanish tarixini ko‘rish mumkin. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining birinchi bosqichi Qadimgi davrlarda XVII asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda tarbiya tajribasining ortib borishi, faktlar to‘planishi, pedagogik va ijtimoiy nazariyalar shakllanganini kuzatish mumkin.

Xaydarov S.A. (2024) o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, o‘quvchilarni tarbiyalashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishning didaktik imkoniyatlari katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining bu bosqichi tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida tan olinishi bilan tavsiflanib, bu davrda tarbiyaning turli nazariyalarini yuzaga kelishi muqarrar bo‘lgan.

Bola shaxsiyatini tashxislashda turli usullardan foydalanish mumkin. Kuzatish usuli orqali bolaning kundalik faoliyatida namoyon bo‘ladigan xususiyatlarni aniqlash mumkin. O‘qituvchi dars va dam olish vaqtlarida bolaning xulq-atvorini muntazam kuzatadi. So‘rov usullari orqali bola bilan bevosita suhbatlashish, uning fikr va qarashlarini bilish orqali shaxsiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu usul bolaning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi.

Loyiha faoliyati orqali bolalarning turli loyihalarda ishtirok etishi ularning ijodiy qobiliyatlari, hamkorlik ko‘nikmalarini va liderlik sifatlarini baholash imkonini beradi. Yoshga mos kelgan maxsus testlar yordamida bolaning intellektual rivojlanish darajasi, xotira, diqqat va boshqa kognitiv jarayonlarini baholash mumkin.

Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil qilish zarur. Bolalarning bilim darajasi va qobiliyatlariga qarab turli darajadagi topshiriqlar berish orqali har bir bola o‘z imkoniyatlari doirasida rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli san’at, sport va ilmiy to‘garaklar tashkil qilish ularning yashirin iste’dodlarini ochishga yordam beradi.

Qiynalayotgan yoki maxsus e’tiborga muhtoj bolalar bilan individual ishlov olib borish ularning o‘ziga ishonch va motivatsiyasini oshiradi. Hozirgi kunda bola shaxsiyatini tashxislashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish keng tarqalgan. Kompyuter dasturlari yordamida bolalarning bilim va ko‘nikmalarini aniq baholash

imkoniyati mavjud. O'yinli ta'lim orqali bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash bolalar uchun qiziqarli va samarali hisoblanadi.

Bolalarning yaratgan ishlari, yutuqlari va rivojlanish jarayonini muntazam qayd etish orqali ularning o'sish dinamikasini kuzatish mumkin. Har hafta bolalarning o'zgarishlarini qayd etish va tahlil qilish orqali o'z vaqtida kerakli o'zgarishlarni kiritish mumkin bo'ladi. Bolaning uy sharoitida ko'rsatadigan xususiyatlari haqida ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lish muhimdir.

Zamonaviy tashxislash usullarini o'zlashtirish uchun doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab turish zarur. Amaliyotda bola shaxsiyatini tashxislashda har bir bola bilan individual ishslash uchun etarli vaqt yo'qligi muammosi mavjud. Bu muammoni hal qilish uchun samarali vaqt rejasini tuzish va guruh ishlarini to'g'ri tashkil qilish kerak.

Ba'zi o'qituvchilar zamonaviy tashxislash usullarini yetarli darajada bilmasligi muammosi malaka oshirish kurslari orqali hal qilinishi mumkin. Barcha maktablarda zamonaviy texnik vositalar mavjud emasligi borada davlat va xususiy tashkilotlar hamkorligi zarur. XVIII-XIX asrlar faylasufi, sotsiologi, pedagogi va psixologlar davlat va jamoat institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir.

O'zbekistondagi demokratik pedagogik g'oyalarning taraqqiyparvoyonalishining yirik vakillaridan biri bo'lib, Sharq tillari va adabiyotini yoshligida chuqur o'rganib, mumtoz o'zbek adabiyoti ta'sirida she'rlar yozib, Toshkent maktablarining birida bolalarga ta'lim bergen. U ilk marotaba tarbiya oldiga ijtimoiy vazifalarni qo'ya olgan. Uning fikrlaricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarni ko'zlashi, tarbiyaning muvaffaqiyati orta, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanishi muhimligini qayd etgan.

Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishning yangi tamoyillari, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillar o'zgarib borayotgan bir paytda ishslashlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, otalarning ajralib ketishi, ayrim ijtimoiy masalalar alkogolizm, narkomanlarga jiroyatchlik, fohishabozlik kabi ijtimoiy muammolarni yechish ham ahamiyat kasb etadi va bu borada harakatlar susaytirilgani yo'q hamda davlat tomonidan nazoratga olingan.

Bunday holatda ijtimoiy yordam va muhofazaga birinchi navbatda bolalar, lekin shu bilan bir qatorda kattalar ham muhtojdirlar. Bunday sharoitda ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsning ijtimoiy muammolarni bilan bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qilishga yordam beruvchi mutaxassissiga ijtimoiy pedagogga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida bola shaxsini tashxislash murakkab va mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. To'g'ri tashxislash orqali har bir bolaning

potensialini to‘liq ochish va uni ijtimoiy hayotga tayyorlash mumkin bo‘ladi. Zamonaviy pedagogika fani bu sohada katta imkoniyatlarni taqdim etadi va o‘qituvchilar ushbu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanib, bolalarning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘sishlari mumkin. Kelajakda ushbu soha yanada rivojlanishi va yangi usul-uslublarning paydo bo‘lishi ta’lim sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O‘quvchilarni tarbiyahda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo’llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.